

# FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

**TAG‘OYEVA Dilnavoz Narziqulovna***Buxoro davlat pedagogika instituti**f.f.d (PhD)**dotsenti***HAYOTOV Farmon Davlat o‘g‘li***Buxoro davlat pedagogika instituti**magistranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661530>

## OILA INSTITUTINING GENEZISI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oila va oila institutining ijtimoiy hayotdagi o‘rni, vazifalari hamda rivojlanish bosqichlari keng yoritilgan. Oila – jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini sifatida inson tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va ma‘naviy shakllanishida hal qiluvchi omil ekani ta‘kidlangan. Shuningdek, maqolada oila institutining huquqiy, madaniy va funksional xususiyatlari hamda uning genezisi, ya‘ni jamiyatdagi tarixiy shakllanish jarayoni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oila instituti, Oila genezisi, Nikoh va qon-qarindoshlik, Oila funksiyalari, Tarbiya va ma‘naviyat, Iqtisodiy hamkorlik, Huquqiy munosabatlar, Oila institutining rivojlanishi, Oila institutining asosiy vazifalari, Ijtimoiy normativlik, Barqarorlik va davomiylik, Oila institutining o‘zgaruvchanligi, Oila institutining zamonaviy muammolari, Xalqaro oila kuni, Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash.

## ГЕНЕЗИС ИНСТИТУТА СЕМЬИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно освещаются роль, задачи и этапы развития семьи и института семьи в социальной жизни. Подчеркивается, что семья, как важнейшее звено общества, играет решающую роль в воспитании личности, её социализации и духовном становлении. Кроме того, в статье с научно-теоретической точки зрения анализируются правовые, культурные и функциональные особенности института семьи, а также его генезис - исторический процесс формирования семьи в обществе.

**Ключевые слова:** Институт семьи, Генезис семьи, Брак и кровное родство, Функции семьи, Воспитание и духовность, Экономическое сотрудничество, Правовые отношения, Развитие института семьи, Основные задачи института семьи, Социальная нормативность, Стабильность и преемственность, Изменчивость института семьи, Современные проблемы института семьи, Международный день семьи, Поддержка семьи и женщин.

## GENESIS OF THE FAMILY INSTITUTE

### ANNOTATION

This article provides a comprehensive overview of the role, functions, and developmental stages of the family and the family institution in social life. It emphasizes that the family, as the most essential unit of society, plays a decisive role in the upbringing, socialization, and spiritual development of individuals. Furthermore, the article analyzes the legal, cultural, and functional characteristics of the family institution, as well as its genesis -the historical formation process within society -from a scientific and theoretical perspective.

**Keywords:** Family institution, Family genesis, Marriage and kinship, Family functions, Upbringing and spirituality, Economic cooperation, Legal relations, Development of the family institution, Main functions of the family institution, Social normativity, Stability and continuity, Variability of the family institution, Modern challenges of the family institution, International Day of Families, Support for families and women.

**Oila** -bu nikoh yoki qon-qarindoshlik munosabatlari asosida birlashgan va birga istiqomat qilish orqali bog‘langan kishilarning kichik ijtimoiy guruhidir. Oila odatda er-xotin, farzandlar, ot-onalar va boshqa yaqin qarindoshlardan iborat bo‘ladi.

Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a‘zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Jahondagi barcha xalqlarning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan. Insoniyat rivojidadagi birinchi bosqich kishilarning ibtidoiy to‘daga birlashuvi bo‘lib, bu to‘da o‘zida eng qadimgi odamlarning katta jamoasini mujassam etgan. Asta-sekinlik bilan qarindoshlarning alohida uyushmasiga – urug‘jamoasiga aylana borgan.

Oilaning asosiy xususiyatlari:

1. Muhabbat va qo‘llab-quvvatlash – oila a‘zolari bir-biriga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi.
2. Tarbiya va ma‘naviyat – farzandlar oila muhitida voyaga yetib, jamiyat qoidalarini o‘rganadi.
3. Iqtisodiy hamkorlik – oila a‘zolari moddiy va maishiy ehtiyojlarini birgalikda ta‘minlaydi.
4. Huquqiy munosabatlar – oilaga oid qonunlar, nikoh, ota-onalik va meros masalalarini tartibga solidi [1, 2].

**Oila instituti** – bu jamiyatdagi oila tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy norma, qoidalar va an‘analarni majmuasidir. Bu institut jamiyatdagi oilaviy munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va barqarorligini ta‘minlaydi. Oiladagi ma‘naviy muhit, shaxslararo munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste‘dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomoni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”, – deydi

Oila institutining asosiy xususiyatlari:

1. Ijtimoiy normativlik – oila huquqiy, diniy va madaniy me‘yorlar asosida shakllanadi.
2. Barqarorlik va davomiylik – oila institutining asosiy vazifasi insoniyat naslini davom ettirish va farzand tarbiyasidir.
3. Funksionallik – oila instituti jamiyatning boshqa tizimlari (iqtisodiyot, ta‘lim, huquq) bilan chambarchas bog‘liq.
4. O‘zgaruvchanlik – jamiyat rivojiga qarab, oila shakllari va unga bo‘lgan talablar ham o‘zgaradi.

Oila institutining asosiy vazifalari:

- Naslni davom ettirish – insoniyatni biologik va ijtimoiy jihatdan davom ettirish.
- Ijtimoiylashuv – farzandlarni jamiyat qoidalariga va qadriyatlariga mos ravishda tarbiyalash.

- Emotsional qo‘llab-quvvatlash – oila a‘zolari o‘zaro mehr-oqibat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi.
- Iqtisodiy funksiyalar – moddiy resurslarni taqsimlash va birgalikda foydalanish.
- Huquqiy va ma‘naviy himoya – oila a‘zolarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish.

O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017 -2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” doirasida qaraladi. [3, 4, 5]. Oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini hamda faol rolini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoniga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega ekanligi ma‘lumot uchun qabul qilingan.

2. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar etib belgilangan:

oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

- zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;

- demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;

oilaning tarbiyaviy-ta‘lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an‘anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilash;

- oilalarga ta‘sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish.

Oila instituti shaxs tarbiyasida va ijtimoiylashuvida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, insonning shaxs sifatida shakllanishi, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umr davomida ta‘sir etadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri bu- tarbiyalashdir. Aynan oilada bolaning aqliy, jismoniy, axloqiy, huquqiy va estetik tarbiyasiga asos solinadi. Aynan oilada, yashab turgan mahallasida, farzandlar ongida vatanga bo‘lgan muhabbat shakllanadi.

**Oila institutining genezisi (kelib chiqishi)** – bu oilaning jamiyatdagi tashkil topishi, rivojlanishi va shakllanishi jarayoni. Oila institutining genezisi insoniyat tarixining qadimiy davrlaridan boshlab, turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar asosida shakllangan. Bu jarayon oila tuzilmasining qanday paydo bo‘lishi va qanday o‘zgarishlarni boshdan kechirganiga bog‘liqdir. Oila institutining genezisini tushunishda birinchi navbatda tabiiy va biologik omillarga e‘tibor berish zarur. Insonlar tabiatan jamiyatda yashashga moyil bo‘lgan mavjudotlardir. Birgalikda yashashning birinchi sababi biologik va yashash ehtiyojlaridir. Erkak va ayolning birlashishi – bu birinchi navbatda naslning davomiyligini ta‘minlash uchun zaruriyatdan kelib chiqqan. Farzandlarning tarbiyasi va o‘sishi, shuningdek, oilaviy ehtiyojlar, o‘zaro yordam va xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida oila shakllana boshladi.

**Oila institutining genezisini tushunish uchun, uni tarixan quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:**

**Tabiiy va biologik asoslar:** Oila institutining genezisini tushunishda birinchi navbatda tabiiy va biologik omillarga e‘tibor berish zarur. Insonlar tabiatan jamiyatda yashashga moyil bo‘lgan mavjudotlardir. Birgalikda yashashning birinchi sababi biologik va yashash ehtiyojlaridir. Erkak va ayolning birlashishi – bu birinchi navbatda naslning davomiyligini ta‘minlash uchun zaruriyatdan kelib chiqqan.

Farzandlarning tarbiyasi va o'sishi, shuningdek, oilaviy ehtiyojlar, o'zaro yordam va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida oila shakllana boshladi.

#### **Erkak va ayolning o'zaro munosabatlari:**

Oila institutining rivojlanishiga asosiy omil – bu erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar edi. Dastlabki jamiyatlarda, asosan, poligamiya (bir erkak bir nechta ayolga ega bo'lishi) va patriarxat tizimi mavjud bo'ldi. Bu davrda oilaning shakli va uning tarkibi odatda ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarga, nasl-nasabni davom ettirish va mehnat taqsimotiga bog'liq edi. Erkaklar oilaning boshqaruvchilari sifatida, ayollar esa farzandlar tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlarini bajaruvchi a'zolar sifatida qaraldi.

#### **Ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar:**

Oila institutining genezisini aniqlashda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ham muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning agrar yoki sanoat rivojlanishi oila strukturasi o'zgartirdi. Qishloq xo'jaligi jamiyatlarida, oilalar ko'pincha mehnatni bo'lishib, birgalikda ishlashgan. Oila boshliqlari yer va mulkni boshqarishda ko'proq hokimiyatga ega bo'lgan. Sanoat inqilobi esa o'z navbatida, oila shakllarini, gender rollarini va mehnat taqsimotini o'zgartirdi. Ayollarning ishchi kuchiga qo'shilishi, bolalarning o'qishi va jamiyatda yangi ijtimoiy rollarning yuzaga kelishi oila institutining tuzilishini qayta shakllantirdi.

#### **Qonunlar va normativlar:**

Oila institutining genezisi ko'pincha qonun va normativlar orqali ham shakllandi. Dastlab, oila ijtimoiy tartibni ta'minlash, mulkni boshqarish va nasl-nasabni saqlash uchun zarur edi. Shu bois, oila haqida ilk qonunlar va normativlar (masalan, nikoh, ajralish, meros) paydo bo'ldi. Bu qonunlar oilaning jamiyatda qanday tashkil topishi va qanday ishlahi kerakligini belgilagan.

#### **Diniy qarashlar:**

Diniy qarashlar ham oila institutining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Diniy e'tiqodlar va marosimlar oila institutining tuzilishini belgilagan. Masalan, xristianlikda nikoh diniy muqaddas bir akt sifatida qaraladi va uni oila barqarorligining asosiy ustuni deb biladi. Shuningdek, musulmonlikda poligamiya, nikoh va meros haqidagi an'anaviy qarashlar oila institutining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

#### **Zamonaviy oila va uning evolyutsiyasi:**

Bugungi kunda oila instituti o'zgarishda davom etmoqda. Industrializatsiya, shaharlararo migratsiya, ayollar huquqlarining rivojlanishi, jinsiy ozodlik va oila a'zolarining individual huquqlariga oid qarashlarning o'zgarishi – bularning barchasi oila institutining zamonaviy shakllarini belgilab bermoqda. Aksariyat jamiyatlarda monogamiya, yirik oila tizimidan kichik yadro oilalariga o'tish, homiladorlik va bola tarbiyasiga nisbatan o'zgaruvchan qarashlar oila institutining yangi shakllarini shakllantirdi.

#### **Oila institutining kelib chiqishi va shakllanishi**

Oila institutining kelib chiqishi asosan biologik va ijtimoiy ehtiyojlardan boshlanib, madaniy va iqtisodiy jarayonlarning ta'sirida rivojlanib borgan. Ijtimoiy tuzilmalar, iqtisodiy o'zgarishlar, mehnat taqsimoti, qonunlar va din oila shakllarini yaratish va rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi. Oila nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy muhim institut sifatida shakllandi. Oila institutining genezisi jamiyatlarning rivojlanishiga mos ravishda shakllangan. Ularning boshlang'ich shakli biologik zarurlardan kelib chiqsa, keyinchalik jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlariga moslashgan.

Har bir davrda oilaning shakli va funksiyalari ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar asosida o'zgargan va rivojlangan. Bu jarayonni tushunish, oila institutining bugungi kundagi vazifalarini va uning kelajakdagi rivojlanishini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Oila jamiyatning asosiy negizi, jamiyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Oila inson kamolotining bosh bo'g'ini, davlat tizimining eng muhim institutidir. Oila – elimizning go'zal urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida asrovchi muqaddas mo'jaz maskan ekan, eziguliklar oiladan boshlanadi, undan mahallaga ko'chadi, jamiyatga kirib boradi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farovon oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilalarda jismonan va ruhan sog'lom bo'lgan farzandlarning dunyoga kelishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Oilaviy munosabatning qonun bilan himoyalaniishi Respublikamiz Konstitutsiyasida, Oila kodeksida va boshqa qonun hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev oilaning jamiyatdagi o'rniga baho berib, shunday deydi: "Oila jamiyatning negizi, bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

Ijtimoiy tahdidlar va global madaniyat ta'sirida millatlarning yashash tarzi, asriy urf-odat va an'analari, axloqiy qadriyatlari hamda oila ma'naviyati jiddiy xavf ostida qolayotganini ta'kidlash zarur. Xususan, G'arb davlatlarida oila institutining tanazzuli kuzatilmoqda.

Oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o'rnini:

Shaxsning ma'naviy qiyofasi, intellektual salohiyati, ijodiy qobiliyati, hayotiy tasavvurlari, ijtimoiy ko'nikmalarini tarkib toptirish oilaviy tarbiyaning muhim masalalaridir. Fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo shunday degan edi: "Ota bolalarni bino qilish, ularni yedirib-ichirish bilan o'z zimmasidagi vazifaning uchdan birinigina bajargan bo'ladi. U bolalarini odamzod qatoriga qo'shmog'i, jamiyatga – faol kishilarni, davlatga – fuqarolarni yetishtirib bermog'i kerak".

Oiladagi ma'naviy muhit, shaxslararo munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o'ynaydi. Ulug' mutafakkir Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida: "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur.

Qush uyasida ko'rganini qilar", – deydi. Barcha davrlarda oilalarning mustahkamligi va tinchligiga tamaddun rivoji, davlatlar taraqqiyotining asosi sifatida qaralgan. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi yig'ilishida 1994-yildan boshlab 15-mayni "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlashga kelishilgani ham ushbu masalaning xalqaro miqyosida naqadar dolzarb ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda ushbu kun 1994-yilning 15-mayidan buyon muntazam ravishda nishonlanib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87- son Farmoni hamda 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori asosida "Xalqaro oila kuni" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda o'tkazilmoqda.

Xalqaro konferensiyani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, zamonaviy oilani mustahkamlash hamda rivojlantirish, oilaning tarbiyaviy-talimiy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va ularning ijobiy natijalarini xalqaro hamjamiyatga yetkazish; sohaga oid xalqaro tajribani hamda ekspertlar fikrini o'rganish, oila instituti sohasiga innovatsiyalar, ilm-fan yutuqlarini implementatsiya qilish hamda rivojlanish istiqbollari belgilab olishdan iborat.

**CHOCKI. IQTIBOSLAR. REFERENCES.**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Nutq va intervyular to‘plami. Toshkent, 2020. (Oila institutining jamiyatdagi o‘rni va davlat siyosati haqida fikrlar.)
3. Abdulla Avloniy. *Turkiy Guliston yoxud axloq.* -Toshkent: 1913. (Oila tarbiyasi va ma’naviyati haqida klassik asar.)
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 1992. (Oila institutining huquqiy asoslari va davlat himoyasi.)
5. Oila kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Toshkent, 2019. (Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat.)
6. BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari. Rasmiy hujjatlar, 2015. (Oila institutining barqaror rivojlanishdagi roli.)
7. Jan Jak Russo. *Jamiyat shartnomasi* (Original nomi: *The Social Contract*). -1762. (Ijtimoiylashuv va shaxs tarbiyasining nazariy asoslari.)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (PF-5325, PF-87, PQ-146). Toshkent, 2018–2022. (Davlat siyosati va oilani qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari.)
9. “Oila instituti va uning ijtimoiy ahamiyati” ilmiy maqolalari to‘plami. Toshkent, 2021. (Oila institutining zamonaviy rivojlanishi va muammolari.)